

UDK: 632.7.727

JANUBIY OROLQUM HUDUDLARIDA YANGI BARPO ETILGAN SAKSOVULZORLARDA SAKSOVUL KATTA BUKRI CHIGIRTKASINING YOPPASIGA KO'PAYISH SABABLARI

Gapparov Furkat Axatovich, q.x.f.d., professor. Eshshanov Bahodir Ruzumboevich q.x.f.d., dotsent, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi direktori o'rinbosari. Jalgasov Baxram Abat uli, Xasanov Jamshid Davletbaevich, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotation. *The saxaul plantinig is described as a pest control and its development and distribution.*

Keywords: *pest, saxaul plant, morphology, the course of life, harm and measures to combat.*

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning shimoliy g'arbiy qismida joylashgan bo'lib maydoni jihatidan eng katta hududni tashkil qiladi, janubda Qizilqum, shimoliy g'arbiy qismida esa Ustyurt platosi mavjud.

Orol dengizining qurishi oqibatida ekologik halokat vujudga keldi, natijada 1964-yildan 2024-yilgacha Orol dengizining maydoni 90% ga kamaydi va oxir oqibatda Orol dengizi Jahon xaritasida eng yangi Orolqumga aylandi.

Dengizning sohil chizig'i yuzlab kilometrlarga chekindi va qum bilan qoplangan sho'r maydonlar paydo bo'ldi. Yangi cho'lning maydoni hozirgi kunga kelib 5 million gektarni tashkil etadi.


Ushbu jarayonlar ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda, ayniqsa Orolbo'yi hududida yashayotgan mahalliy aholiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Saksovulzorlar ilk bor 1994-2008 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining Orol dengizining qurigan maydonlarida Germaniyaning GTTST tashkiloti ko'magida yetti gektar maydonda barpo etilgan edi.

Oradan bir necha yillar o'tib hukumat qarori asosida Orol dengizi tubida saksovulzorlashtirish jadal suratlarda olib borilmoqda. Xususan 2016-yildan boshlab Orol dengizining qurigan tubida 1,9 million gektarga qora saksovullar ekildi va hozirda ham Orolqumning boshqa hududlarida saksovulzorlar barpo etilmoqda.

Saksovul katta bukri chigirtkasi respublikamizning katta va kichik qumli va taqir hududlarida o'sadigan oq va qora saksovulzorlarda uchraydi. Bu turdagi chigirtka asosan cho'l butalari sho'rak (*Salsola L.*), qora va oq saksovul va boyalich (*Salsola arbuscula*) bilan oziqlanadi.

Hozir vaqtda saksovul katta bukri chigirtkasi Qoraqalpog'iston Respublikasining yangi barpo etilayotgan saksovulzorlarida xususan Surgi, Urgi, Axantay va Qo'ng'iro't tumanidagi mavjud saksovullarida hamda Qoraqalpog'istonning Qizilqum massivida joylashgan To'rtko'l, Ellikqal'a va Beruniy tumanlaridagi saksovulzorlarda ham keng tarqalmoqda.



Qoraqalpog'iston Respublikasida saksovul katta bukri chigirtkasining tarqalgan hududlar

Saksovul katta bukri chigirtkalarining yoppasiga ko'payish sabablaridan eng asosiysi respublikamizda saksovulzorlarning umumiy maydoni 30 yil mobaynida olti marotabaga kengayganligi va yangi barpo etilgan va etilayotgan saksovulzorlarga tarixiy mavjud bo'lgan saksovulzorlardan shamol orqali chigirtkalarining yetuk zoti galalari uchib o'tib yangi o'choqlar barpo etilishi hisoblanmoqda.

Shu sababli yangi tashkil etilayotgan saksovulzorlarda xususan Orolqumda turli hasharotlar saksovulga zarar keltiruvchi saksovul katta va kichik bukri chigirtkasining soni keskin ortib bormoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Qizilqum va Orol dengizi tubida ekilgan qora saksovulzorlarda yoppasiga ko'paygan yillarda bir tup saksovulda mingdan ortiq chigirtkalarni uchratish mumkinligi aniqlandi va qiyoslandi. Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki Qoraqalpog'iston Respublikasining Qizilqum massivida, xususan

Qizilqumning Ellikqal'a tumani hududidagi mavjud bo'lgan oq saksovulzorlardagi butalarning balandligi 1,5-2 metrdan yuqori bo'lmagan saksovulzorlarida saksovul katta bukri chigirtkasi tuxum ko'zachilaridan chiqishi bilan to'da (kuliga) hosil qilib zudlik bilan bir necha yuz metr masofani bosib o'tib yon-atrofdagi barcha saksovul butalariga chiqib olib so'ng esa xar bir saksovulda mingdan ortiq lichinkalar o'simlik bargi va yumshoq novdalari bilan oziqlana boshlashi kuzatildi.




Orol dengizining Surgul hududi. 2023-yil



Orol dengizining Urgu hududi. 2023-yil

2022-yilga kelib birgina Surgi hududida yangi barpo etilgan 300 ming gektar maydondagi saksovulzorlarning 110 ming gektar maydonida saksovul katta bukri chigirtkasiga qarshi kimyoviy kurash olib borildi. Bahor oyidagi kuzatuvlarimiz asosida Surgi hududida bir tup saksovul butasining tagidan 60 tagacha tuxum ko'zachalari mavjudligi aniqlanganligi sababli ushbu hududda kimyoviy kurash olib borildi. Oradan ikki yil o'tib 2024-joriy yilda esa kimyoviy kurash olib borilgan Surgi hududida bahor oyida tuxum ko'zachilarini sonini aniqlash bo'yicha olib borgan kuzatuvlarimiz natijasiga ko'ra 40 dona saksovul butalari tagidan 8 dona saksovul bukri chigirtkasining tuxum ko'zachilari mavjudligi aniqlandi. Joriy 2024-yilda Surgul hududidan 80 km chaqirim yiroqdagi Ustyurt platosiga yaqin bo'lgan Urgi uchastkasida, avvallari ushbu uchastkada saksovul katta bukri chigirtkasiga qarshi umuman kurash olib borilmagan maydonda 40 ta saksovul butasining tagi qismida 350 dan ortiq tuxum ko'zachilari mavjudligini aniqladik.

2023-2024-yillarda respublikamizning Navoiy, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qizilqum hududlaridagi saksovlzorlarda mavjud bo‘lgan saksovl katta bukri chigirtkasi lichinkalarining rivojlanish davri 46 kun davom etdi. Vaholanki Qoraqalpog‘iston Respublikasining Orol tubidagi yangi barpo etilgan qora saksovlzorlarida 2022-2023 yillarda saksovl katta bukri chigirtkasi lichinkasining rivojlanish muddati 60 kun davom etdi. Buning asosiy sabablaridan biri joriy yilning may oyi boshlarida Oroloqum massivida tunda do‘l yog‘ib harorat keskin pasayib ketdi. Kunduz kunlari harorat yillik haroratga nisbatan $+5+8^{\circ}\text{C}$ ga pasaydi. Bunday holat may oyining birinchi va ikkinchi dekadasi boshlarida davom etdi.



Saksovl katta bukri chigirtkasi tuxum ko‘zachasi

Ma’lumki Oroloqumda qadimda katta dengiz bo‘lganligi, saksovlzorlar ko‘lining tamoman qurib ketishi sababli 2010-yillardan boshlab inson tomonidan saksovlzorlar o‘rmonzorlarga aylantirishidan so‘ng Qoraqalpog‘iston Respublikasining mavjud bo‘lgan saksovlzorlardan shamol orqali bu turdagi chigirtkalar uchib kelib qolganligiga bor yo‘g‘i 15 yil ham bo‘lmaganligi ma’lum.



Saksovl katta bukri chigirtkasi imagosi

(F.A.Gapparov)



Saksovl katta bukri chigirtkasi lichinkasi

Ko‘p yillik kuzatishlarimiz mobaynida saksovul katta bukri chigirtkasi yoppasiga ko‘paygan yillarda o‘z vaqtida kurash olib borilgan yillarda bu turdagi chigirtkalar bir necha yil hatto bir necha o‘n yillar mobaynida keskin kamayib son jihatdan zarar keltirish mezonini ham tashkil qila olmaydi va saksovul katta bukri chigirtkasi yakka xol shakliga o‘tadi. Bunday holat 1998 va 2018-yilda Surxondaryo viloyatining “Katta qum massivi” va 1985 va 2008-yilda Qashqadaryo viloyatining mavjud bo‘lgan saksovulzorlarida yoppasiga ko‘payganligi sababli bu turdagi chigirtkalarga qarshi kimyoviy kurash olib borilgan edi. Hozirgi kunda saksovul katta bukri chigirtkasi ikki janubiy hududlarda to‘da hosil qilmaydigan shaklida bo‘lib, 100 tup saksovul bo‘talarida 2-5 donani tashkil qilmoqda. Shu sababli chigirtkalar saksovulzorlar uchun xavfli emas.

Respublikamizda zararli chigirtkalarga qarshi kurash uchun ruxsat etilgan kimyoviy preparatlarni saksovul katta bukri chigirtkasiga ko‘rsatilgan miqdorda erta tong va kechda mavjud bo‘lgan texnik vosita va purkagichlar yordamida kurash olib borish zarur. Aks holda bu turdagi chigirtkalar saksovullarga katta zarar keltiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Токаев Т. Фауна и экология саранчовых Туркмении, 1973.
2. Gapparov F.A. Latchininsky A.V What are consequences of ecosystem disruption on aridid diversity and adundance. – NATO Scince Series. –In.
3. Гаппаров Ф.А., Лачининский А.В., Нуржанов А.А. Антропогенные нарушения в экосистеме Приаралья и изменение видового состава саранчовых. Ж. Прикладная энтомология. Научно-практический рецензируемые журнал. – Москва. – Т. III. -№2. (8). – 2012. – С. 40-47.
4. Grasshoppers and grassland Health. –Dordrecht/Boston/London/- 2000.
5. Ф.А.Гаппаров, А.Ф.Хайтмуратов, А.В.Лачининский, Ш.К.Худанов, Р.Певелинг, А.Ф.Хайитмуратов, О.Исоков, Ш.Круль, И.Х.Хамроев. Ўзбекистонда тарқалган зарарли чигирткалар ва темирчаклар ҳамда уларга қарши кураш бўйича илмий-услубий қўлланмаси, 2008.
6. Эшчанов Б. Массовое размножение саксаульной горбатки в Узбекистане. Ташкент, 2008.

7. Эшчанов Б.Р. Нуржанов А.А. Саксовул усимлигига зарар келтирувчи чигирткалар. Тошкент 2009.

8. Гаппаров,Ф.А. Вредные саранчовые Узбекистана. Ташкент , 2014 г.